

The University of World Economy and Diplomacy

**Institute for Advanced  
International Studies**

**2024**

**PRESIDENTIAL**


**ELECTION**

Amerika Qo'shma Shtatlaridagi  
dastlabki saylovlari natijalari to'g'risida

**Ulugbek Ishanxodjayev**  
**Shaxzoda Jumaniyazova**  
**Fazliddin Djamalov**

## Amerika Qo'shma Shtatlaridagi dastlabki saylovlar natijalari to'g'risida

2024-yil boshlanishi bilan, AQShda Demokratik va Respublikachilar partiyalaridan prezidentlik nomzodiga raqobatlashadigan boshlang'ich saylovlar «praymeriz» bo'lib o'tmoqda. Ovoz berish natijalariga ko'ra, nomzodlar yozda har ikki partianing qurultoylarida o'zlarining yagona nomzodini rasman tasdiqlashi uchun ovoz beradigan delegatlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Demokratik partianing nomzodi tasdiqlanishi uchun 3934 delegatning kamida 1968 delegat ovozini qo'lga kiritilishi kerak, Respublikachi nomzod esa 2429 delegatning kamida 1215 ovozini olishi kerak. 20 dan ortiq shtatlarda "praymeriz" o'tkazilgandan so'ng, ikkala partiya ham asosiy da'vogarlarning aniq ustunligini ochiqlandi: Donald Tramp – respublikachilar va Jo Bayden – demokratlarning boshlang'ich saylovlarida g'alaba qozonishdi, deya xabar beradi Amerika ommaviy axborot vositalari. Donald Tramp 1228, Jo Bayden 2099 delegat ovozini qo'lga kiritishdi. Shu tariqa, ular tez orada o'z partiyalari tomonidan AQSh prezidentligiga rasman nomzod qilib ko'rsatiladi. 1912-yildan beri birinchi marta AQShning sobiq davlat rahbari amaldagi prezidentga qarshi chiqish holati ko'zatilishi mumkin. Ushbu dinamika saylov jarayonining asosiy jihatlarini belgilaydi, bunda alohida shtatlar va delegatlar soni muhim rol o'yndaydi.



1-rasm. 2024-yil 13-mart holatiga ko'ra saylovchilar ovozlarining nomzodlar bo'yicha taqsimlanishi.

**Nevada shtatidagi praymerizlar.** Joriy yilning 6 fevralida Nevada shtatida Demokrat va Respublikachilarining praymerizlari bo'lib o'tdi. Respublikachilar poygasida ishtirok etishni davom ettirish niyatini e'lon qilgan sobiq prezident Donald Trampning yagona raqibi Nikki Xeylining holati keskin yomonlashdi. Praymerizlar saylov byulletenlarida Trampning ismi ko'rsatilmagan holda o'tkazildi, biroq bu uning asosiy raqibi N.Xeyliga praymerizda g'alaba qozonishiga imkon bermadi. 63,3% (50,763) saylovchilar "nomzodlarning hech biri" qatorida ovoz berishgan, va 30,6% (24583) natija bilan N.Xeyli ikkinchi o'rinni egallab mag'lubiyatga uchradi. Shuni aytib o'tish joyizki, Oq uyning amaldagi rahbari Jo Bayden ushbu shtatdagi o'zining boshlang'ich saylovlarida 89% saylovchilarning

qo'llab-quvvatlagan holda g'alaba qozonib Trampni (5,8%) ikkinchi o'rinda qoldirdi.

**Virginiya orollaridagi kokuslar.** Joriy yilning 8-fevralida Virginija orollarida ham respublikachilar kokuslari bo'lib o'tdi. Nevadadan farqli ravishda, sobiq prezident Donald Tramp va uning asosiy raqibi N.Xeyli bir vaqtning o'zida saylov byulleteniga kiritilgan. Garchi N.Xeyli kokuslardan oldingi kunlarda bir necha bor tashrif buyurgan bo'lsada, nomzodlarning hech biri saylov kampaniyasini o'tkazishmagan. D.Tramp Virginija orollaridagi kokuslarda 74,2% (187) natija bilan navbatdagi g'alabasini qo'lga kiritib, g'alabali tariqasini uzaytirdi, va delegatlar sonini to'rt kishiga ko'paytirdi. Saylovchilarning 25,8% (65) esa N.Xeyliga ovoz bergan. Biroq AQShning Virginija orollaridagi Respublikachilar partiyasi o'z saylovlarini Respublikachilar milliy qo'mitasi qoidalarini buzgan holda o'tkazganligi tufayli, delegatlar soni to'qqizdan to'rt nafarga qisqardi.

**Ma'lumot uchun:** *Respublikachilar partiyasi qoidalariga ko'ra, faqat Ayova, Nyu-Gempshir, Nevada va Janubiy Karolina shtatlarida 1-martgacha praymeriz yoki kokus o'tkazilishi mumkin. Bundan tashqari, 15-martgacha bo'lib o'tgan har qanday kokus delegatlarni proporsional (mutanosib) ravishda taqsimlashi kerak, Virjiniya orollari esa buni majoritar ovoz berish orqali amalga oshirdi.*

**Michigan shtatidagi praymerizlar.** 27-fevral kuni Michigan shtatida bo'lib o'tgan praymerizda Donald Tramp g'alaba qozondi. Saylov natijalariga ko'ra, saylovchilar Trampga 68, %, Nikki Xeyliga esa 26,5% ovoz berishgan. Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, Trumpga qarshi ko'plab jinoiy ishlar qo'zg'atilganiga qaramay, Michigan respublikachilari orasida hali ham qo'llab-quvvatlanmoqda. Demokratik partiyada esa AQSh amaldagi prezidenti Jo Bayden 80% bilan yetakchilik qilmoqda. "Ikkilanganlar" ulushi 13% ni tashkil etdi.

**Janubiy Karolina shtatidagi praymerizlar.** Joriy yilning 3-fevralida Janubiy Karolina shtatida bo'lib o'tgan Demokratik partiyasining ilk rasmiy praymerizda Jo Bayden ko'pchilik ovozlarni qo'lga kiritdi. Amaldagi davlat rahbari 97% yaqin ovoz to'plagan. Uning raqiblari-Minnesota shtatining vakili din Fillips va yozuvchi Marianne Uilyamson- hatto 2% ham to'play olmagan.

24-fevral kuni Donald Tramp Janubiy Karolinada bo'lib o'tgan Respublikachilar partiyasining praymerizlarida raqibi, ushbu shtatning ikki muddatga sobiq gubernatori bo'lgan Nikki Xeylini mag'lubiyatga uchratdi,. Tramp 59,8% va Xeyli 39,5% ovoz oldi. Associated Press ta'kidlaganidek, bu so'nggi o'n yilliklarda birinchi marta prezidentlikka nomzod bo'lishga kurashayotgan siyosatchi o'z shtatida dastlabki ovoz berishda yutqazishi.

Shtat qonunchiligiga ko'ra, nafaqat Respublikachilar partiyasi tarafdori sifatida ro'yxatga olingan saylovchilar, balki 3-fevral kuni Demokratlar partiyasining praymerizlarida ovoz bermagan saylovchilar, shuningdek, o'zini

hech bir partiyaga tegishli deb hisoblamagan mustaqil saylovchilar ham ovoz berishlari mumkin edi.

**Kolumbiya okrugidagi praymerizlar.** Nikki Xeyli praymerizda Donald Trampdan katta farq bilan g'alaba qozondi: Trampning 33,3% qarshi 62,8% ovoz oldi. Bu natija Xeyliga barcha 19 delegatini ta'minladi. Prayerizlar yopiq tarzda bo'lib o'tdi, ya'ni faqat ro'yxatdan o'tgan partiya a'zolari ovoz berish huquqiga ega edi. Ushbu g'alaba bilan N.Xeyli hech qanday praymerizda g'alaba qozona olmaydi degan yorliqni o'zidan olib tashladi. N.Xeylining ushbu praymerizdagi g'alabasi AQSh tarixida birinchi marta ayol kishining Respublikachilar partiyasidan prezidentlik saylovlarida g'alaba qozonishi bo'ldi.

Bundan tashqari, Trump jamoasi noyabr oyida bo'lib o'tgan saylovlarda g'alaba qozongan taqdirda ushbu okrugda istiqomay qilayotkan ko'plab davlat xizmatchilarini ishdan bo'shatib sodiq bo'lganlar bilan almashtirishga va'da bergen. Tramp jamoasi allaqachon raqibiga "botqoq malikasi" maqomini bergen, chunki Kolumbiya oz sonli delegatlarga ega shtat sanalib, umumiy saylov kampaniyasi davomida minimal ustunlikka ega.

**Missuri, Michigan va Aydaxo shtatlaridagi kokuslar.** Joriy yilning 2-mart kuni Donald Tramp uchta shtatda: Missouri, Michigan va Aydaxoda Respublikachilar partiyasining kokuslarida g'alabaqozonib, o'zining yagona qolgan raqibi Nikki Xeylini ortda qoldirdi. Missouri shtatidagi kokuslarda Tramp 100% ovozga ega bo'ldi. O'z navbatida, 1575 saylovchi Michigan kokuslarida Trampni qo'llab-quvvatlandi, Xeyli esa bor-yo'g'i 36 ovoz to'pladi.

Aydaxo shtatida Tramp 84,9%, Xeyli 13,2%, Florida gubernatori Ron DeSantis esa 1,3% saylovchilar tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Ushbu shtatda kokusga kelganlarning yarmidan ko'pi tomonidan qo'llab-quvvatlangan nomzod Respublikachilar partiyasi qurultoyida barcha 32 delegatning ovozini oladi.

Missouri, Michigan va Aydaxo shtatlarida kokuslar o'tkazilishidan oldin Tramp 122 delegatlar ovoziga erishdi. Bu natija, 2-martdagи yig'ilishlar bir xil miqdordagi ovozlar taqdirini belgilab berdi.

**Shimoliy Dakota kokuslari.** Donald Tramp joriy yilning 4-mart kuni Shimoliy Dakota shtatidagi 12 ta saylov uchastkasida o'tkazilgan kokuslarda g'alaba qozonib birinchi o'rinni egalladi. Saylovchilarning 84,6% (1632 nafar ovoz) Trampni qo'llab-quvvatlandi. Shunday qilib, Tramp atigi 14,1% (273 nafar ovoz) to'plagan yagona raqibi Nikki Xeylidan ishonchli tarzda g'alaba qozonib o'tib ketdi. Biroq, ovozlar sonida bo'yicha sezilarli farq bo'lishiga qaramay, Xeyli kurashdan voz kechmadi. Ushbu muvaffaqiyat shuni anglatadiki, Tramp bu yilgi Respublikachilar partiyasining o'nta praymerizning to'qqiztasida g'alaba qozonib, o'z yetakchiligini tasdiqladi.


**"Super seshanba".** Respublikachilar praymerizlarida Tramp 15 shtatdan 14 tasida g'alaba qozondi. Nikki Xeyli g'olib bo'lgan Vermont bundan mustasno

bo'ldi chunki u yerda praymerizlar ochiq tizimda o'tkazildi va hatto demokratlar ham unga ovoz berishlari mumkin edi. Ammo, to'rtta shtatda Trampning farqi 20-30% atrofida, qolganlarida esa 40% dan 70% gacha bo'lgan. Respublikachilar partiyasidagi praymerizda Trampning so'nggi raqibi Nikki Xeyli saylovoldi tashviqotini olib borish uchun barcha sarflangan xarajatlarni bekor qildi va prezidentlik poygasidan chiqishini rasman e'lon qildi.


Bayden ham Amerika Samoadagi kichik kokusdan tashqari barcha praymerizlarda g'alaba qozondi. U yerda Bayden atigi 40 ovoz to'plagan va 51 ovoz to'plagan biznesmen Jeysen Palmerdan ortda qolgan. Xavotir uchun alohida sabab - Baydenning Isroil va Falastinga nisbatan siyosati tufayli "qarorsiz" deb ovoz berishga chaqirgan chap qanot faollarining kampaniyasi. Bunday ovozlarning ulushi Shimoliy Karolinada 12,7% (88 ming) va Minnesota shtatida 19%(46 ming) yetdi, ushbu shtatda aholining 1% somali millatiga mansub.

***Jorjiya, Missisipi va Vashington shtatlaridagi praymerizlar.*** Amaldagi AQSh prezidenti Jo Bayden Demokratik partiyadan navbatdagi prezidentlik muddatiga nomzod bo'lishini ta'minlash uchun boshlang'ich saylovlarda yetarlicha delegat to'pladi. Jorjiya, Missisipi va Vashington shtatlarida joriy yilning 12-mart kuni bo'lib o'tgan birlamchi ichki partiyaviy saylovlar natijalariga ko'ra, Bayden nomzod bo'lish uchun zarur bo'lgan 1968 dan ortiq delegatning qo'llab-quvvatlashiga erishgan. Xuddi shu kuni Gavayi shtatida ham praymerizlar bo'lib o'tdi, biroq ularning natijalari xabar e'lon qilingan paytda noma'lum edi.

Oq uyning sobiq prezidenti Donald Tramp Jorjiya, Missisipi va Vashingtonda Respublikachilar partiyasining praymerizlarida g'alaba qozondi. Bu unga Respublikachilar partiyasidan prezidentlikka nomzodlikni ta'minlash uchun zarur bo'lgan 1215 delegatni olish imkonini berdi.



2-rasm. 2024-yil 13-mart holatiga ko'ra shtatlar bo'yicha respublikachilarining *birlamchi saylov natijalari*.



3-rasm. 13.3.2024 holatiga ko'ra, shtatlar bo'yicha demokratik partiyaning *boshlang'ich saylovlari natijalari*.

Respublikachilar yoki Demokratik partiyalardan AQSh prezidentligiga nomzod bo'lish uchun, avvalo, ichki partiyaviy praymerizlarda g'alaba

qozonishingiz kerak. Rasmiy ravishda oliy davlat lavozimiga nomzodlar yozda har ikki partiyaning qurultoylarida aniqlanadi. AQShda navbatdagi prezidentlik saylovi 2024-yil 5-noyabrga belgilangan. Ushbu saylovlar bilan bir qatorda Kongress saylovlari ham bo'lib o'tadi. Ayni vaqtida quyi palatada ko'pchilik o'ringa demokratlar, senatda esa Trampning partiyadoshlari – Respublikachilar partiyasi - ega. O'z navbatida, D.Trampning g'alabasi respublikachilarining shaxsiy g'alabalari ehtimolining oshishini anglatadi.

Ushbu material quyidagi axborot va tahliliy nashrlarda chop etilgan statistik ma'lumotlar asosida tayyorланади:

*The Hill.* (2024, March 13). Retrieved from <https://thehill.com/elections/>

*CNN.* (2024, March 13). Election updates and news. CNN. Retrieved from <https://edition.cnn.com/election/2024>

*Fox News* (2024, March 13). Locking It Up: Trump Clinches 2024 Republican Presidential Nomination in Tuesday's Primaries. Fox News. Retrieved from <https://www.foxnews.com/politics/locking-it-up-trump-clinches-2024-republican-presidential-nomination-tuesdays-primaries>

*ABC News.* (2024, March 13). Key dates on the 2024 primary calendar. ABC News. Retrieved from <https://abcnews.go.com/Politics/key-dates-2024-primary-calendar/story?id=106229563>

*Vox.* (2024, March 13). Exploring the 2024 Elections. Vox. Retrieved from <https://www.vox.com/2024-elections>

*Politico.* (2024). 2024 Election Results. Retrieved from <https://www.politico.com/2024-election/results/>

*RealClearPolitics.* (2024, March 13). Retrieved from [https://www.realclearpolitics.com/Delegate\\_Tracker](https://www.realclearpolitics.com/Delegate_Tracker). In NBC News. Retrieved from <https://www.nbcnews.com/politics/2024-primary-elections/delegate-tracker>

*The Federalist* (2024, March 13). Republican primary is officially over as Trump clinches nomination. Retrieved from <https://thefederalist.com/2024/03/13/republican-primary-is-officially-over-as-trump-clinches-nomination/>

*Yahoo News.* (2024, March 13). Biden Wins Northern Mariana Islands. Retrieved from <https://www.yahoo.com/news/biden-wins-northern-mariana-islands-153251586.html>

*2024 Republican Presidential Nomination.* (2024). In US Presidential Election News. Retrieved from <https://www.uspresidentialelectionnews.com/2024-republican-presidential-nomination/>

*Shuningdek, ma'lumot to'plashda ko'rsatgan yordami uchun IXTI Amerikani o'rganish markazi amaliyotchisi Odilbek Manabovga alohida minnatdorchilik bildiriladi.*